O‘zbek tilining rasmiy uslubi va unda modal so‘zlarning qo‘llanishi

Hatamov Ziyodin Mamadullayevich
Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
doktoranti.Samarqand, O‘zbekiston.
xatamovziyodin@gmail.com
orcid: 0009-0004-8004-9652.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilining rasmiy-idoraviy uslubida modal so‘zlarning qo‘llanish xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqot rasmiy hujjatlar: xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, boshqa ayrim rasmiy hujjatlar va Prezident murojaatnomalari materiallari asosida olib borildi. Tahlil natijalari rasmiy yozma hujjatlarda rasmiy uslubga xos tarzda subyektiv modallikning keskin cheklanganini, deontik modallikning ustuvorligini hamda ayrim modal so‘zlarning bilvosita modal vosita sifatida ishlatilishini ko‘rsatadi. Rasmiy uslubning og’zaki shakli bo‘lgan muhtaram prezidentimiz murojaatnomalarida esa aksincha – subyektivlik va uni ifodalovchi modal so‘zlarning ko‘proq qo‘llanishi kuzatiladi. Maqolada rasmiy uslubning har ikkala, yozma va og’zaki shakllaridagi modal so’zlar funksional stilistik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: rasmiy uslub, rasmiy uslub belgilari, modallik, subyektiv modallik, deontik modallik, modal so‘zlar.

The official style of the uzbek language and the use of modal words

Abstract

This article examines that the functional and stylistic features of modal word usage in the official-administrative style of the Uzbek language. The research is based on an analysis of official texts, including the Constitution of the Republic of Uzbekistan, selected normative legal acts and Presidential addresses. The findings reveal that in official written acts, subjective modality is significantly restricted in accordance with the norms of the official style, whereas deontic modality is predominant. In addition, certain modal words are employed as indirect modal means. In contrast, Presidential addresses, representing the oral form of the official style, demonstrate a higher degree of subjectivity and a more frequent use of modal words expressing subjective modality. The article provides a functional and stylistic analysis of modal words in both written and oral forms of the official style.

Keywords: *official style, characteristics of official style, modality, subjective modality, deontic modality, modal words*.

Официальный стиль узбекского языка и употребление модальных слов

Аннотация

В статье рассматриваются функционально-стилистические особенности употребления модальных слов в официально-деловом стиле узбекского языка. Исследование основано на анализе официальных текстов, включая Конституцию Республики Узбекистан, отдельные нормативно-правовые документы и президентские послания. Результаты исследования показывают, что в официальных письменных документах субъективная модальность существенно ограничена в соответствии с нормами официального стиля, при доминировании деонтической модальности. Кроме того, некоторые модальные слова используются в качестве косвенных модальных средств. В то же время в президентских посланиях, представляющих устную форму официального стиля, наблюдается более высокая степень субъективности и более частое употребление модальных слов, выражающих субъективную модальность. В статье модальные слова анализируются с функционально-стилистической точки зрения в письменной и устной формах официального стиля.

Ключевые слова: *официальный стиль, характеристики официального стиля, модальность, субъективная модальность, деонтическая модальность, модальные слова.*

I. Kirish

Ramiy uslub hozirgi o‘zbek adabiy tilining ma’muriy hamda yuridik faoliyatlarda qo‘llaniladigan ma’lum bir ko‘rinishidir. Ma’lumki, o‘zbek tilining zamonaviy rasmiy til uslubi mustaqillikkacha rus tili asosida shakllangan bo‘lsa ham, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng amaliy doirasi nihoyatda kengaygan va rasmiy munsabatlarda rus tilining o‘rnini egallagan uslub sanaladi. Rasmiy maqomda ish yuritish tizimining o‘zbek tilida olib borilishi tilimizning mavqeyini yanada mustahkamladi. Uslubshunoslikka oid adabiyotlarda uni bir necha nomlar bilan atalganiga guvoh bo‘lish mumkin. Rasmiy yozishma va hujjatlar stili [8, 20], rasmiy-idoraviy uslub [5, 12] yoki shunchaki rasmiy uslub [1,119] kabi. Rasmiy uslubda bosh qonun – respublikamiz konstitutsiyasi, hukumatimiz boshqaruv institutlarining qonunlari, diplomatik hujjatlar, yuridik hujjatlar, sud qarorlari va boshqa turli xil jamiyat boshqaruviga tegishli muhim huquqiy hujjatlari yaratiladi, keng ommaga taqdim qilinadi. Shuningdek, yuridik va diplomatik iqtisodiy munosabatlarda barcha hukumat idoralari va nodavlat tashkilotlarida hujjat shakllantirish, ular orqali fuqarolar bilan munosabatga kirishish, ma’lumot berish, undash, aloqa qilish uchun ko‘pincha yozma, ba’zan og‘zaki shaklda qo‘llaniladi. Aniq ilmiy manbaa tili bilan aytganda: “Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatchilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e’lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi [1,120]”.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek tilining rasmiy-idoraviy uslubida modal so‘zlarning qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash, ularning funksional-stilistik vazifalarini yoritish hamda rasmiy yozma hujjatlar va og‘zaki rasmiy nutq materiallari asosida modallikning ifodalanishiga qiyosiy tahlil berishdan iborat.

II.Adabiyotlar sharhi

O‘zbek tilining rasmiy nutq uslubi eng qadimiy uslublardan biri ekanini ta’kidlab o‘tish joiz. Tilshunos olim Berdaq Yusufning fikricha turkiy xalqalar tilida rasmiy til uslubga oid ilk namunalar qadimgi O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari hisoblanadi [3, 13]. Ayni paytda o‘zbek tilshunosligida eng kam o‘rganilgan til uslubi rasmiy uslub desak xato bo‘lmaydi. Aynan ushbu uslubga bag‘ishlangan ilmiy maxsus ilmiy tadqiqotlar mustaqillikkacha D. Baboxonova va mustaqillikdan so‘ng Sh. Ko‘chimovlar va qisman tomonidan amalga oshirilgan [4.] [6] [7]. Lekin keyingi davlarda, afsuski, rasmiy aynan uslubga doir ilmiy tadqiqotlar ko‘zga tashlanmaydi.

Nutq uslublari ichida ilmiy uslubga ancha yaqin bo‘lgan, lekin o‘ziga xos jihatlari bilan farqlanib turadigan uslubdir. Ilmiy uslubga xos bo‘lgan aniqlik, logik izchillik, obyektivlik, qisqalik kabilar rasmiy uslub uchun ham xosdir. S. Karimov ham rasmiy uslubga xos xususiyatlar sifatida birinchi navbatda bayonning aniqligi, matnning ravon, sodda va tushunarli, subyektiv munosabatdan dan xoli bo‘lish kabilarni aytib o‘tadi [6, 12]. O‘zbek tilida qonunlar tilini o‘rgangan Sh. Ko‘chimov qonunlar tilining belgilari sifatida rasmiylik, neytrallik, qat’iylik, aniqlik, qisqalik, mantiqiy izchillik, yonaltirilganlik, shaxssizlik, qoliplashganlik kabilarni ko‘rsatadi [7,17]. Rasmiy uslubning mutlaq katta qismini rasmiy hujjatlar tashkil etadi. Har qanday hujjat til asosida yaratiladi. Yuqoridagi xususiyatlar til tizimidagi ma’lum vositalari orqali yuzaga chiqariladi. Boshqacha aytganda: “Hujjatlar matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatlari hujjatchilik tilining o‘ziga xos uslubi, undagi o‘ziga xos so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta’minlanadi [2, 18]”.

O‘zbek tilshunosligida rasmiy uslub masalalari D. Babaxanova, Sh. Ko‘chimovlar tomonidan maxsus, S. Karimov tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan bo‘lsa-da, rasmiy matnlarda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari hali yetarlicha kompleks

o‘rganilmagan. Ayniqsa, rasmiy yozma hujjatlar bilan rasmiy-siyosiy og‘zaki nutqlarda modallik va modal so‘zlar qo‘llanishi, ularning rasmiy uslubdagi o‘rni, funksional-stilistik xususiyatlarini o‘rganish maxsus tadqiqotni talab etadi.

III.Tadqiqot metodologiyasi, materiali va empirik tahlil

Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy, funksional-stilistik va qiyosiy metodlardan foydalaniladi. Empirik material sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yildagi yangi tahriri matni, Prezident murojaatnomalari hamda normativ-huquqiy hujjatlardan olingan modal so’zli jumlalar xizmat qiladi. Matnlarda modal so‘zlarning turi, chastotasi va bajaradigan funksiyalari aniqlanib, yozma rasmiy hujjatlar bilan og‘zaki rasmiy-siyosiy nutq qiyoslab o‘rganiladi.

Demak, rasmiy uslubdagi matnlarga xos eng muhim xususiyatlaridan biri xolislikdir. Chunki davlat boshqaruvida ma’lum bir kishining manfaatini emas, umumiy jamiyat manfaatini ko‘zlashni taqozo qiladi. Ya’ni davlat boshqaruvining eng muhim hususiyatlaridan biri xolislikdir. Bu ekstralingvistik belgi u qabul qilgan hujjatlar matniga ko‘chadi. Hujjatlar esa jamiyatdagi insonlar orasidagi turli munosabatlarni xolis tarzda izchil tartibga solish vazifasini bajaruvchi vositalardir. Yuqoridagi manbada ham shu narsa alohida ta’kidlanadi: “Hujjatlar matniga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri – xolislikdir. Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi va qayd etuvchi rasmiy yozma vositalar sifatida axborotni xolis aks ettirmog‘i lozim. Shuning uchun hujjatlar tilida so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan chegaralanishlar mavjud [2, 17]”. Bunda aytilgan xolislik subyektivlikning cheklanishiga sabab bo‘ladi. Rasmiylik maqomi subyektivlikka zid hisoblanadi. Rasmiy uslubni maxsus o‘rganagan Babaxanova Dilarom ham so‘zlovchining muayyan hodisaga bo‘lgan munosabatini ifodalash “rasmiylik” tabiatiga zid ekanini ta’kidlagandi [4, 6]. Ushbu xususiyatga S. Karimov ham alohida e’tibor qaratib shunday deydi: “Rasmiy matnlarning “quruqlik” (emotsionallikdan, subyektivlikdan mahrumlik nazarda tutilmoqda) xarakteri subyektiv baho ifodalovchi vositalarning ishlatilishiga yo‘l qo‘ymaydi [5, 19]”.

Bunday fikrlar rasmiy uslub matnida shaxssizlik, subyektivlik mutlaq mavjud bo‘lmaydi degani emas. Rasmiy uslubga oid matnlarda muallif pozitsiyasi, shaxsiy munosabat ochiq tarzda ifodalanmaydi. Subyektivlik rasmiy hujjat matnlarida bevosita emas**,** balki bilvosita – yashirin (implitsit) tarzda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida rasmiy uslubning bunday xususiyatlari o‘rganigan ishlar mavjud emas. Rus tilshunosligida rus tilidagi rasmiy hujjat matnlaridagi modallikni tadqiq etgan olima Kireyeva Elena ham rasmiy matnlardagi subyektiv baholash munosabati haqida shunday yozadi: “Bizning tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, hujjat matnidagi subyektiv baholash, umuman olganda, implitsit tarzda ifodalanadi [9, 39]”. Demak, rasmiy uslubda shaxs, subyekt mavjud, lekin u ko‘pincha kollektiv va rasmiy maqomdagi xolis subyekt sifatida namoyon bo‘ladi desak xato bo‘lmaydi.

Muallif munosabati – subyektiv modallik demakdir. Yuqoridagilardan xulosa qilsak, rasmiy-idoraviy uslubga xos ekstralingvistik omillar, qonunlar tiliga xos xolislik, shaxssizlik subyektiv modallikning keskin cheklanishiga bo‘ladi. Xususan, muallif shaxsiga xos bo‘lgan subyektiv, hissiy-ekspressiv va baholovchi *afsuski, albatta, shubhasiz, xayriyatki* va shu kabi subyektiv modallik vositalari (modal so‘zlar) va undov so‘zlar, subyektiv modallik ifodalovchi yuklamalar rasmiy yozma matnlarda qo‘llanilmaydi. Lekin obyektiv modallikning boshqa turlari, masalan deontik modallik rasmiy hujjatlarda ko‘proq kuzatiladi. Deontik modallik *lozim, shart, majbur, mumkin* va shu singari modallik vositalari orqali ifodalanadi. Yuqorida ismini zikr etganimiz Kireyeva Elena ham rus tilidagi rasmiy matnlarda epistemik va deontik modallik turlarining uchrashini ta’kidlaydi [9, 4].

Darhaqiqat, o‘zbek tilidagi qonun hujjatlarini ko‘zdan kechiganimizda subyektiv modallik ifodalovchi modal so‘zlarning qo‘llanilmasligini kuzatish mumkin. Lekin ularda *shuningdek, jumladan, xususan, avvalo, birinchidan, ikkinchidan* kabi **bilvosita modal so‘zlarni** uchratish mumkin. Xususan, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda bironta bevosita modal so‘z qo‘llanmagan. Buning sababi yuqorida ta’kidlaganimiz qonunlarga

bo‘lgan xolislik talabi va uning kollektiv tomonidan ishlab chiqilganidir. Faqatgina **modallik effekti mavjud** yoki **bilvosita modal so‘zlardan** *eng avvalo, shu jumladan, shuningdek* so‘zlari kirish so‘z sifatida ishlatilgan. Bulardan *eng avvalo* va shu *jumladan* bir martadangina, *shuningdek* so‘zi esa ancha ko‘p, ya’ni o‘ttiz ikki marta qo‘llangan. Bosh qonunimiz matnida boshqa bunday so‘zlar umuman uchramaydi. Ushbu so‘zlar oldin ta’kidlaganimizdek subyektiv modallik ifodalash uchun emas, umuman, jumlalar qisimlari orasidagi munosabatlarni tartibga solish, qolaversa, ta’kidlash uchun vosita vazifasini bajaradi. Xususan, *eng avvalo* so‘zi matn ichidagi asosiy fikrga ustuvorlik berish, *shu jumladan, shuningdek* kabilar esa birinchi navbatda jumlaga muhim izohlovchi, aniqlashtiruvchi qo‘shimcha axborotni kiritish vazifasini bajargan:

1. *O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, **eng avvalo,** qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib… (1-bet).*
2. *Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, **shu jumladan** uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi. (7-bet).*
3. *Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, **shuningdek** jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi.(9-bet).*

Shuningdek, birinchi misoldagi *eng avvalo* so‘zi jumla izchilligini ta’minlaydi, u orqali davlatning muhim pozitsiyasi bilvosita baholanadi. Lekin ushbu so‘z ekspressivlik xususiyatiga ega emas, rasmiy uslub talabiga mos va hujjatning obyektiv ohangini buzmaydi. Ikkinchi namunadagi *eng avvalo* so‘zi huquqiy aniqlikni ta’minlash vazifasini bajarishdan tashqari ijtimoy taqiqlangan holatni alohida ajratib ta’kidlaydi. Songgi misoldagi *shuningdek* so‘zi orqali esa huquqiy normani kengaytiriladi, u ikki taraf o‘rtasidagi mantiqiy tenglik ta’minlovchi normaning kiritilishida muhim bog‘lovchi vosita bo‘ladi. Qolgan barcha holatlarda ham bu so‘z shu maqsadda qo‘llangan.

Shunindek so‘zidan tashqari rasmiy hujjatlar tilida bilvosita modal so‘zlardan *birinchidan, ikkinchidan* kabilar qo‘llanilishi salmoqli. S. Karimov bu so‘zlarni “ta’kidlash ottenkasini yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar”dan ekanini hamda shu uslubga xos ekanini aytib o‘tadi [6, 26]. Darhaqiqat, ushbu so‘zlar huquqiy hujjatlar struktursida muhim o‘rin tutadi hamda ulardan ko‘zlangan maqsad va vazifalarini, muammolarni, qilinishi kerak bo‘lgan ishlarni sanab o‘tishda, har bir punktini tartib va ta’kid bilan ifodalashda qo‘llaniladi:

***Birinchidan**, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish faoliyatini ta’minlashning mexanizmlarini tartibga solishda huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish zarur. **Ikkinchidan,** davlat boshqaruvi organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlari sohasidagi faoliyatini o‘zaro hamkorlikda amalga oshirishning aniq mexanizmlari ishlab chiqilmagan.* (“Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2020-yil 22-iyun).

Umuman, ushbu so‘zlarni bevosita modal so‘z bo‘lmasa-da, qonunlar matniga xos, qat’iylikni, ta’kidni ta’minlovchi standartlashgan mantiqiy bog‘lovchi, tartibga soluvchi vositalar sifatida baholash mumkin.

Biz rasmiy uslubning boshqa janrlariga ham murojjat qilganimizda ham subyektivlikdan xolilik va buning natijasi o‘laroq modal so‘zlarning qo‘llanmaganiga guvoh bo‘ldik. Chunki mamlakat konstitutsiyasi matni nafaqat yuridik va ifoda uslubi, til xususiyatlari jihattlaridan ham boshqa qonunlarga namuna hisoblanadi. Lekin ramiy uslubning og‘zaki shaklda yuqori darajadagi rahbarlar tomonidan irod qilinadigan rasmiy-siyosiy nutqlar ham mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Muhtaram prezidentimizning Oliy Majlisimizga murojaatnomalari bunga namuna bo‘la oladi. S. Karimov ham rasmiy nutqning og‘zaki shakli bo‘lishi muminligini, oliy rahbarning murojaatlari, tabriklari bunga misol ekanini aytib o‘tadi [6, 28]. Garchi puplisistik uslubga xos belgilar kuzatilsa-da, har holda, murojaatnomalarning subyekti ham obyekti ham rasmiy shaxslardir. Ular yakka shaxsga tegishliligi uchun subyektiv munosabatning ifodalanish

imkoniyati oshadi. Xususan, ishonch munosabatini ifodalovchi *albatta, haqiqatan ham, shubhasiz*, hissiy munosabat ifodalovchi *afsuski* modal so‘zlarining qo‘llanishi kuzatilgan:
1. Nogironligi bo‘lgan shaxslar, boquvchisini yo‘qotganlar, yolg‘iz keksalar, ***umuman,*** *ko‘makka muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash,* ***albatta****, ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.* (Murojaatnoma matni, 29.12.2018 10-b.).
2. ***Hech shubhasiz****, o‘z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda.* (29.12.2020.40-b).
3. ***Haqiqatan ham,*** *biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz.* (Murojaatnoma matni, 29.12.2018 10-b.).
4. ***Afsuski,*** *hozir ham tergov sifati pastligi, sudlarda odamlarning ovoragarchiligi, sud qarorlari ijro etilmay qolayotgani bilan bog‘liq holatlar uchramoqda.* (Murojaatnoma matni, 20.12.2022.7-b.).

Ushbu misollardagi kirish vazifasidagi ishonch ifodalovchi modal so‘zlar orqali nutqining ishonchliligini, tas’irchanligini oshirgani, kuzatiadi. Xususan, *albatta* so‘zi davlat siyosatining uzviyligini, davomiyligini, ishonchliligini urg‘ulaydi. Murojjatnoma matnlarida ishonch bildiruvchi eng ko‘p qo‘llanilgan so‘z bo‘lgan. Masalan, yuqoridagi 2018-yilgisida **to‘qqiz marta** qo‘llangan. Ularda ham ushbu so‘z ko‘pincha yuqoridagi kabi vazifalar bajargani ko‘zga tashlanadi. Keyingi namunadagi modal so‘z orqali kuchi ishonch munosabati ifodalangan, u fikrning mutlaq haqiqat sifatida taqdim etishda muhim vosita bo‘lgan bo‘lsa, uchunchi namunada *haqiqatan ham* so‘zi oldingi fikrni tasdiqlash, fikrning hayot haqiqati ekanini ta’kidlash uchun vosita bo‘ladi. Umuman, bunday modal so‘zlar orqali tinglovchilarda ham qilingan va qilinachak ishlarga ishonch munosabati, kelajakka nisbatan optimistik ruh paydo bo‘lishi ko‘zlanadi. Oxirgi jumladagi modal so‘z mamlakatdagi bir sohadagi kamchilikni ko‘rsatish vazifasini bajargan. Umuman, ushbu so‘z deyarli barcha murojaatnoma matnlarida qo‘llangan. Xusasan, 2022-yilgi murojaatnoma matnida **besh marta** qo‘llangan va barcha holatlarda biror muammo-kamchilikni olib chiqish, unga tanqidiy munosabat bildirish maqsadida qo‘llangani kuzatiladi. Boshqalarida ham shu tendensiya kuzatiladi. Garchi emotsional modal so‘z bo‘lsa-da, keskin hissiylikdan xoli, rasmiylikka xos ratsional baholovchi modallikni yuzaga keltiradi, jumlaga tanqidiy ohang olib kiradi.

Shuningdek, murojaatnoma matnlarida *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan, jumladan, xususan, shuningdek, umuman, masalan* kabi bilvosita modal so‘zlar ham kirish so‘zlar o‘laroq qo‘llanilishi kuzatiladi. Ular ham yuqorida ta’kidalganimiz kabi kabi jumlalar qisimlari orasidagi munosabatlarni mantiqiy tartibga soluvchi muhim o‘ziga xos vositalardir. Ularning funksional-stilistik xusiyatlari boshqa uslublardagidan ko‘p ham farq qilmaydi. *Avvalo, avvalambor* kabilar konstitutsiya matnidagi kabi muhim masalalarning ustuvorligini urg‘ulash, ta’kidlash uchun, *Birinchidan, ikkinchidan* va shu tipdagi ta’kidlash ottenkasiga ega so‘zlar yuqoridagidek alohida ahamiyatli vazifa va maqsadlarni sanab o‘tish, *xususan, shuningdek* kabilar umumiy fikr ichidagi muhim jihatlarni ajratib ko‘rsatish, qo‘shimcha kiritish, *masalan* bajarilgan ishlarni misol sifatida keltirish uchun qo‘llangan.

IV. Natijalar

1. Rasmiy uslubga oid matnlarda muallif pozitsiyasi, shaxsiy munosabat ochiq tarzda ifodalanmaydi. Subyektivlik rasmiy hujjat matnlarida bevosita emas**,** balki bilvosita – yashirin (implitsit) tarzda namoyon bo‘ladi.

2. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, rasmiy uslubga xos ekstralingvistik omillar, qonunlar tiliga xos xolislik, shaxssizlik subyektiv modallikning keskin cheklanishiga bo‘ladi. Xususan, muallif shaxsiga xos bo‘lgan subyektiv, hissiy-ekspressiv va baholovchi *afsuski, albatta, shubhasiz, xayriyatki* va shu kabi subyektiv modallik vositalari (**bevosita modal so‘zlar**) rasmiy yozma matnlarda qo‘llanilmaydi.

3. Rasmiy hujjat matnlarida *shuningdek, jumladan, xususan, avvalo, birinchidan, ikkinchidan* kabi **bilvosita modal so‘zlarni** uchratish mumkin. Xususan, 2023-yilda qabul

qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda *eng avvalo, shu jumladan, shuningdek* so‘zlari kirish so‘z sifatida ishlatilgan. Ushbu so‘zlar subyektiv modallik ifodalash uchun emas, umuman, jumlalar qisimlari orasidagi munosabatlarni tartibga solish, qolaversa, ta’kidlash uchun vosita vazifasini bajaradi.

4. Prezidentimiz murojaatnomalarida ishonch munosabatini ifodalovchi *albatta, haqiqatan ham, shubhasiz*, hissiy munosabat ifodalovchi *afsuski* modal so‘zlarining qo‘llanishi kuzatilgan. *Albatta* so‘zi davlat siyosatining uzviyligini, davomiyligini, ishonchliligini urg‘ulaydi. *Haqiqatan ham* so‘zi oldingi fikrni tasdiqlash, fikrning hayot haqiqati ekanini ta’kidlash uchun vosita bo‘ladi. *Afsuski* modal so‘zi mamlakatdagi bir sohadagi kamchilikni ko‘rsatish, biror muammo-kamchilikni olib chiqish, unga tanqidiy munosabat bildirish maqsadida qo‘llangani kuzatiladi.Shuningdek, murojaatnoma matnlarida *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan, jumladan, xususan, shuningdek, umuman, masalan* kabi bilvosita modal so‘zlar ham kirish so‘zlar o‘laroq qo‘llanilishi kuzatiladi. Ular ham yuqorida ta’kidalganimiz kabi kabi jumlalar qisimlari orasidagi munosabatlarni mantiqiy tartibga soluvchi muhim o‘ziga xos linvistik vositalardir.

V. Xulosa va muhokama

Rasmiy uslub matnlariga xos eng muhim xususiyatlaridan biri xolislikdir. Rasmiylik maqomi subyektivlikka zid hisoblanadi. Lekin bu unda subyektivlik mutlaq mavjud bo‘lmaydi degani emas. Rasmiy uslubga oid matnlarda muallif pozitsiyasi, shaxsiy munosabat ochiq tarzda emas, implitsit tarzda ifodalanadi. Bu uslubda obyektiv modallikning boshqa turlari, masalan deontik modallik rasmiy hujjatlarda ko‘proq kuzatiladi. Rasmiy-idoraviy matnlarda *shuningdek, jumladan, xususan, avvalo, birinchidan, ikkinchidan* kabi **bilvosita modal so‘zlarni** uchratish mumkin. Shuningdek, ushbu uslubning og‘zaki shaklida, xususan, muhtaram prezidentimizning murojaatnomalarida ishonch munosabatini ifodalovchi *albatta, haqiqatan ham, shubhasiz*, hissiy munosabat ifodalovchi *afsuski* modal so‘zlarining qo‘llanishi kuzatiladi. Shuningdek, murojaatnoma matnlarida *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan, jumladan, xususan, shuningdek, umuman, masalan* kabi bilvosita modal so‘zlar ham kirish so‘zlar o‘laroq qo‘llanilishi kuzatiladi. Ular ham oldingi fasldagi kabi kabi jumlalar qisimlari orasidagi munosabatlarni mantiqiy tartibga soluvchi muhim o‘ziga xos funksional-stilistik vositalardir.

VI. Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашрёти, 2015.
2. Aminov M. Madaliyev A., Mahkamov H., Mahmudov N. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2020.
3. Бердақ Юсуф. Қадимги туркий тилнинг расмий услуби, Ўзбек тили ва адабиёти журнали., 2020/№3б.
4. Бабаханова Д. Официальный деловой-стиль современного узбекского литературного языка. Автореф. дис. канд.филол.наук., Тошкент-1987.
5. Каримов С. Ўзбек тили функсионал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашрёти, 2010.
6. Кўчимов Ш. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили. Филол.фан. номз. дис. автореф. Тошкент-1995.
7. Кўчимов Ш. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий мумммолари: Фил. фан. доктори диссертацияси, Тошкент – 2004.
8. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. - Тошекент, “Ўқитувчи” нашрёти, 1983.
9. Киреева Е. З. Категория модальности и ее выражение в тексте официального документа (На материале регионального законодательства) Автореф. дис. док. фил. наук, Архангельск – 2019.